



O'QUVCHILARDA YANGI TIPDAGI ONA TILI DARSLIKLARIDAGI INFOGRAFIKA VA CHIZIQLI GRAFIKLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Xolmatjonova Moxinur Sherzodbek qizi
Andijon viloyati Marhamat tumanidagi 47-IDUM
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17462156>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-oktabr 2025 yil
Ma'qullandi: 25-oktabr 2025 yil
Nashr qilindi: 28-oktabr 2025 yil

KEYWORDS

infografika, chiziqli grafik, statistik ma'lumotlar, til ta'limi, yangi tipdagi darsliklar, vizualizatsiya.

ABSTRACT

Ushbu maqola yangi avlod ona tili darsliklarida faol qo'llanilayotgan infografika va chiziqli grafiklar kabi vizual vositalar bilan ishlash kompetensiyalarini o'quvchilarda shakllantirishning zaruriyati va metodologik asoslarini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada vizual savodxonlikni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan, grafik ma'lumotlarni tushunish, talqin qilish va ulardan nutqiy faoliyatda foydalanish bo'yicha samarali usullar taklif etilgan. Tadqiqot natijalari o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga va zamonaviy axborot makoniga moslashgan shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida ona tili ta'limi mazmuni tubdan yangilanib, o'quvchilarning amaliy nutqiy faoliyatini, tafakkurini va mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilmoqda. Yangi tipdagi ona tili darsliklari zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda, o'quvchilarda **axborotni o'qish, tahlil qilish, umumlashtirish** va **grafik shaklda ifodalash** kompetensiyalarini shakllantirishni maqsad qiladi.

Bunday darsliklarda **infografika, chiziqli grafik, diagramma, jadval** va **sxemalar** kabi vizual vositalarning qo'llanilishi o'quvchilarga mavzularni yanada aniq va tushunarli tahlil etish imkonini beradi. Shuningdek, ularning o'qish savodxonligi, axborotni tahlil qilish va fikrni mantiqan bayon etish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bois, infografika va chiziqli grafiklar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy ona tili darslarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Infografika (lotincha informatio – taqdim etish, tushuntirish, taqdim etish; va boshqalar, yunoncha γραφικός – yozma, γράφω – yozish) - bu murakkab ma'lumotlarni aniq vizualizatsiya qilishga qaratilgan ma'lumotlar va ma'lumotlarni taqdim etishning grafik usuli.[Sayfillo Solijonov, Lingvokulturologiyaning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent, 2024] Grafik va aloqa dizaynining bir shakli[Nevsom, Havnes, 2010: 220-221]. Infografika –

axborotni taqdim etishning grafik usulidir. Boshqacha qilib aytganda, buni rasm ko'rinishidagi ma'lumotlar desak ham bo'ladi. Infografika boshqa elementlarni (matn, ko'rsatkichlar, diagrammalar, bloklar va ikonlar) o'z ichiga olishi mumkin, unda grafik tasvirlar asosiy rol o'ynaydi [G'ulom Nazarov, 2022:(medium.com)].

Vizual savodxonlik – axborotni tasvirlar orqali o'qiy olish, talqin qilish va yaratish qobiliyatidir. Ona tili darslarida grafik materiallar bilan ishlash quyidagi jihatdan muhim:

• **Axborotni tizimlashtirish:** Infografika va chiziqli grafiklar grammatik qoidalar, nutq uslublari, yozuv tarixi kabi ma'lumotlarni ixcham va tizimli tarzda taqdim etadi. O'quvchi matnning mohiyatini grafik orqali tezda anglaydi.

• **Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish:** Grafikani o'qish o'quvchidan ma'lumotlarni taqqoslash, sabab-oqibat bog'liqliklarini topish va xulosa chiqarishni talab qiladi.

• **Kommunikativ kompetensiya:** Grafikdagi ma'lumotni so'zlab berish, uni og'zaki va yozma nutqqa aylantirish — bu grafikani lingvistik faoliyatga integratsiya qilishdir.

Ona tili darslarida grafik vositalar bilan samarali ishlash uchun quyidagi metodik yondashuvlarni qo'llash tavsiya etiladi: Ignografika odatda murakkab ma'lumotlarni qisqa matnlar, suratlar, ikonka va diagram

mmalar yordamida uzatadi.

Bosqich	Tavsifi	Kompetensiyaning Shakllanishi
Qabul qilish	Infografikani to'liq ko'zdan kechirish, uning nomini va asosiy savolini aniqlash.	Diqqatni jamlash, ma'lumot manbasini belgilash.
Tahlil qilish	Rasmlar, raqamlar va matn bo'laklari o'rtasidagi aloqalarni izlash. "Nima nima bilan bog'liq?" savoliga javob topish.	Mantiqiy fikrlash, struktura anglash.
Talqin qilish	Infografikadagi ma'lumotlarni o'z so'zlari bilan izohlash, xulosa chiqarish.	Og'zaki nutq, leksik boylik.
Qo'llash	Ushbu grafik ma'lumot asosida yangi matn (referat, qisqa xabar) tuzish.	Yozma nutq, nutqiy faoliyat.

Ona tilida chiziqli grafiklar ko'pincha so'z boyligining o'sish dinamikasi, imloviy xatolar chastotasi kabi statistik ma'lumotlarni ko'rsatishda qo'llanilishi mumkin.


Grafikni o'qishning uch qoidasi (PPP – Pick, Process, Present):

1. **Pick (Aniqlash):** Grafikning o'qlari (X va Y o'qlar) nimani anglatishini aniqlash.
2. **Process (Qayta ishlash):** Chiziqning eng yuqori, eng past nuqtalari, ko'tarilish va tushish joylarini topish. Bu o'zgarishlarning sabablarini matn kontekstida topish.
3. **Present (Taqdim etish):** Grafikni xolisona, izchil va ilmiy uslubda og'zaki yoki yozma nutq orqali bayon etish. Bunda "ortdi", "kamaydi", "barqarorlik saqlandi", "keskin o'zgarish" kabi leksik birliklardan faol foydalanish talab etiladi.

Yangi tipdagi ona tili darsliklarida infografika va chiziqli grafiklar kabi vizual vositalarning mavjudligi o'quvchilarda vizual savodxonlik va axborot kompetensiyasini

shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Grafiklarni o'qish, tahlil qilish va ularni nutqiy faoliyatga integratsiya qilish orqali o'quvchilar nafaqat lingvistik bilimlarni egallaydilar, balki zamonaviy dunyo axborotlarini tezkor va samarali qayta ishlash ko'nikmasiga ham ega bo'ladilar. Shu bois, o'qituvchilar grafik ma'lumotlar bilan ishlash metodikasini o'quv jarayoniga tizimli ravishda kiritishlari zarur. Qolaversa, chiziqli grafiklar va infografikalar bilan yaxshi ishlay olish kompetensiyasining shakllanishi o'quvchilarning chet tillarini oson va to'g'ri o'rganishlariga ham yordam beradi. Chunki bugungi kunda ko'plab nufuzli oliy ta'lim muassasalari, xalqaro universitetlarga o'qishga qabul qilinishda talab qilinadigan IELTS(International English Language Test System) imtihonlarining yozma savodxonlikni sinovdan o'tkazish (writing) qismining 1-bosqichida talabgorlardan aynan shunday chiziqli grafik, ustunli va dumaloq diagramalar yoki jadvallar bilan ishlash ko'nikmasi talab qilinadi[https://ielts.idp.com/uae/prepare/article-overview-task-1-ielts-academic-writing].

Quyida yangi tipdagi 8-sinf ona tili darligida keltirilgan ayrim grafiklar bilan bog'liq topshiriqlarni ko'rib chiqamiz.



1.38. Infografikalar asosida quyidagi hukmlarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

1. Ikkala infografikani umumlashtirib turuvchi jihat mavjud.
2. Ikkala yilda ham doimiy aholi soni bir xil bo'lgan.
3. Infografikalarda ikki yillik demografik holatga oid to'liq statistika aks etgan.
4. 2023-yilda tuzilgan nikohlar soni keyingi yilga nisbatan kam.
5. 2024-yilda tug'ilishlar soni oldingi yildagiga nisbatan kamaygan.
6. Aholi o'sishi dinamikasi 2024-yilda pasaygan.
7. 2023- va 2024-yilda shahar va qishloqda yashovchilar ulushida farq bor.
8. Ikkala yilda doimiy aholi ulushida erkaklar va ayollar foizi o'zgarmasa-da, ular sonida farq bo'lgan.
9. 2023-yilda vafot etganlar soni keyingi yildagidan ko'p ko'rsatilganiga 2024-yildagi statistikada yillik ko'rsatkich qamrab olinmagani sabab bo'lgan.
10. 2023-yilda erkaklar ayollarga nisbatan kam vafot etgan.

1.39. Yuqoridagi to'g'ri ma'lumotlardan foydalanib O'zbekiston Respublikasining 2023-yildagi demografik holati haqida axborot matni yozing.

K. Mavlonova boshqalar muallifligidagi 8-sinf ona tili darsligining 22-betidagi 1.37-topshiriqda berilgan ushbu infografika va unga bog'liq 1.38 va 1.39-topshiriqlarni bajarish va o'quvchiga tushuntirish texnikasini ko'rib chiqsak. O'quvchilar ushbu murakkab grafik ma'lumotlar bilan ishlashda quyidagi qadamlarga amal qilishlari kerak:

1. **Mavzuni aniqlash:** Grafik nimaning holatini ko'rsatmoqda?(*Javob: O'zbekiston Respublikasining demografik holati.*)
2. **Davrlarni belgilash:** Qaysi davrlar solishtirilmoqda?(*Javob: 2023-yil yanvar-dekabr (dastlabki) va 2024-yil yanvar-sentyabr (dastlabki) ma'lumotlar.*)
3. **Asosiy ko'rsatkichlarni ajratish:** Grafikda qanday ma'lumot turlari mavjud?(*Javob: Doimiy aholi soni, tug'ilganlar soni, vafot etganlar soni, nikohlar/ajralishlar soni, aholi dinamikasi.*)

O'quvchilar asosiy demografik ko'rsatkichlarni 2023-yil yakuni va 2024-yil dastlabki 9 oyligi bo'yicha qiyoslashadi.

Ko'rsatkich(ming kishi hisobida)	2023	2024-yil dastlabki 9 oy	Farq
Doimiy aholi soni	36 799,8	37 355,4	O'sish(+555,6)
Tug'ilganlar soni	962,0	693,9	Kamaygan
Vafot etganlar soni	172,8	131,7	Kamaygan
Tuzilgan nikohlar	283,8	179,4	Kamaygan
Nikohdan ajralishlar	49,2	34,0	Kamaygan

O'quvchi "Doimiy aholi soni dinamikasi" chiziqli grafigini alohida tahlil qilishi kerak:

- Grafik X o'qi yillar (2019–2023) ni ko'rsatadi.
- Grafik Y o'qi esa o'sish sur'atini foizda (masalan, 102.1%, 102.2%) ko'rsatadi.
- **Xulosa:** 2019-yildan 2023-yilgacha aholi sonining o'sish sur'ati nisbatan **barqarorlikni**

(taxminan 102.1% atrofida) saqlab kelgan.

Tahliliy Kom petensiya (Topshiriq 1.38 - Hukmlarni to'g'ri/noto'g'ri aniqlash) Bu yerda o'quvchidan grafik ma'lumotlarni matnli hukmlarga solishtirish talab etiladi.

Hukm	Holat	Izoh (Grafikdan isbot)
1. Ikkala infografikani umumlashtiruvchi jihat mavjud.	To'g'ri	Ikkisi ham O'zbekiston demografik holatini ko'rsatadi.
2. Ikkala yilda ham doimiy aholi soni bir xil bo'lgan.	Noto'g'ri	2023-yil - 36 799,8 ming; 2024-yil - 37 355,4 ming.
5. 2024-yilda tug'ilish soni oldingi yilga nisbatan kamaygan.	Noto'g'ri	Davrlar (12 oy va 9 oy) turlicha. Qiyoslash mumkin emas. 2024-yil 9 oylik ma'lumoti 2023-yil 12 oylik ma'lumotidan kam bo'lishi tabiiy.
7. Shahar va qishloqda yashovchilar ulushida farq bor.	Noto'g'ri	Ikkala yilda ham mos ravishda shaharda 51.0%, qishloqda 49.0% (ulush bir xil).
9. 2023-yilda vafot etganlar soni keyingi yilgidan ko'p ko'rsatilganiga 2024-yildagi statistika yillik ko'rsatkich qamrab olinmagani sabab bo'lgan.	To'g'ri	2023-yil 12 oylik (172,8 ming), 2024-yil esa 9 oylik (131,7 ming). Bu hukm o'quvchining davrlar farqini tushunishini sinaydi.
2023-yilda erkaklar ayollarga nisbatan kam vafot etgan	Noto'g'ri	2023-yilda erkaklardan 95,0 ming kishi vafot etgan, ayollardan esa 77,8 ming kishi vafot etgan.

Keyingi topshiriqda ushbu grafik bo'yicha axborotni yozish talab qilinadi.

Ushbu aralash grafiklar to'plami O'zbekiston Respublikasining demografik holatini ikki alohida davr: 2023-yilning to'liq yillik ma'lumotlari va 2024-yilning dastlabki to'qqiz oyi kesimida solishtirma tahlil qilib, asosiy ko'rsatkichlar (aholi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlar soni) bo'yicha o'zgarishlarni aks ettiradi.

Umuman olganda, kuzatilgan davr oralig'ida doimiy aholi soni sezilarli darajada o'sishni boshdan kechirgan. Shu bilan birga, 2024-yilda barcha muhim statistik ko'rsatkichlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlar) kamayganligi kuzatiladi. Biroq bu pasayish asosan ma'lumotlar to'plangan davrning qisqaligi bilan bog'liqdir. Eng e'tiborlisi, shahar va qishloq aholisi nisbati mutlaqo o'zgarishsiz qolgan.

Aholi sonining o'zgarishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, doimiy aholi soni 2023-yildagi **36 million 799,8 ming kishidan**

2024-yil sentyabriga kelib **37 million 355,4 ming kishiga** yetgan. Har ikkala davr uchun ham aholining shahar va qishloq joylashuvi mos ravishda **51.0% va 49.0%** nisbatda o'zgarishsiz qolgan. **Tug'ilish ko'rsatkichlari** bo'yicha 2023-yilda **962,0 ming** kishi ro'yxatga olingan bo'lsa, 2024-yilning qisqa davri uchun bu ko'rsatkich **693,9 mingni** tashkil etgan.

Nikoh va o'lim holatlari ham xuddi shunday dinamikani ko'rsatadi. 2023-yil yakunida **283,8 ming nikoh** qayd etilgan, bu ajralishlar sonidan (**49,2 ming**) deyarli olti baravar ko'pdir. O'lim holatlari 2023-yilda **172,8 mingni** tashkil etgan, erkaklar o'lim darajasi ayollarnikidan yuqori bo'lgan. Chiziqli grafik shuni ko'rsatadiki, 2019-yildan 2023-yilgacha aholi sonining yillik o'sish sur'ati **102.1% va 102.2%** atrofida minimal tebranish bilan **o'ta barqaror** bo'lib qolgan.

Yangi tipdagi ona tili darsliklariga **infografika** va **chiziqli grafiklarning** kiritilishi o'quvchilarda nafaqat lisoniy (lingvistik), balki **integrativ axborot kompetensiyasini** shakllantirish uchun zamonaviy platforma yaratadi. Yuqorida tahlil qilingan murakkab demografik infografika misoli shuni ko'rsatadiki, hatto lingvistik bo'lmagan grafik materiallar ham o'quvchilarning **tanqidiy fikrlash** va **rasmiy-ilmiy nutqni shakllantirish** ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali vosita bo'lib xizmat qila oladi.

Tadqiqotimiz va amaliy tahlillar shuni isbotlaydiki:

1. **Vizual savodxonlikni** rivojlantirish orqali o'quvchilar murakkab ma'lumotlarni **tizimli o'qish** va **tezkor talqin qilish** qobiliyatiga ega bo'ladilar.
2. Grafik ma'lumotlarni IELTS Task 1 kabi **aniq formatlarda** qayta ishlash amaliyoti ularning **qiyosiy tahlil, maqsadga muvofiq leksikadan foydalanish** va **izchil yozma nutq** kompetensiyalarini bevosita oshiradi.
3. Grafiklarni o'qish jarayonini "**Tanishuv - Tahlil - Taqqoslash - Bayonot**" bosqichlariga bo'lish, grafiklar bilan ishlamagan o'quvchilarda ham **psixologik to'siqni olib tashlashga** yordam beradi.

Ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, umumta'lim maktablarida ona tili o'qituvchilariga quyidagilar tavsiya etiladi:

- **Fanlararo yondashuvni** kuchaytirish: Ona tili darslariga tarix, geografiya yoki statistika kabi fanlarga oid bo'lishi mumkin bo'lgan, lekin talabalar uchun qiziqarli vizual materiallarni (infografikalarni) muntazam ravishda kiritish.

- **Innovatsion baholash usullari:** O'quvchilarni grafik asosida **og'zaki taqdimotlar (reportajlar)** tayyorlashga undash, ularning nutqiy faoliyatida "ortdi/kamaydi/barqarorlik saqlandi" kabi akademik atamalarni qo'llashni baholash.

Xulosa qilib aytganda, yangi avlod darsliklaridagi infografika va grafiklar faqatgina dizayn elementi emas, balki **XXI asr kompetensiyalarini** shakllantiruvchi fundamental didaktik vosita hisoblanadi. Bu vositalardan to'g'ri foydalanish o'quv jarayonining sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Meirelles, I. Design for Information: An Introduction to the Histories, Theories, and Best Practices Behind Effective Information Visualizations. Rockport Publishers. 2013.
- 2.G'ulom Nazarov 2022-yil, 7-may (medium.com) – Gulom Nazarov. <https://medium.com/@gulomnazarov/infografika-nima-infografika-yaratish-uchunkerakli-maslahat-va-5-ta-onlayn-xizmat-a280a1eb602a>

3. Newsom D, Haynes J. Public Relations Writing: Form & Style. – Cengage Learning, 2010. – 448 p. – ISBN 9781439082720.
4. Krum R. Cool Infographics: Effective Communication with Data Visualization and Design. John Wiley & Sons. NJ. US. 2013
5. Ona tili. 8-sinf darsligi. K. Mavlonova va boshqalar. – Toshkent, 2025

